

## **MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTINI BOSHQARISHDA OTA-ONALAR NING ISHTIROKI**

*Sagdullayeva Nilufar Mamirjanovna*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada maktabgacha ta'lism tashkiloti hayotida va boshqaruvida ota-onalar ishtirokining o'rni va ahamiyati tahlil etilgan. Maktabgacha ta'lism tashkilotida kuzatuv kengashlarini tashkil etishning mohiyati va huquqiy asoslari, shu bilan birgalikda ota-onalar ishtirokining boshqa shakllari tadqiq etilib, mazkur masalada taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** maktabgacha ta'lism tashkiloti, boshqaruv, kuzatuv kengashi, ishtirok, hamkorlik.

**Annotation:** This article analyzes the role and importance of parents' participation in the life and management of a preschool educational organization. The nature and legal basis of the organization of monitoring councils in the preschool education organization, as well as other forms of parental participation, were studied, and proposals and recommendations were developed in this regard.

**Key words:** preschool education organization, management, supervisory board, participation, cooperation.

Hozirgi vaqtda bolani tarbiyalashning samaradorligi ko'p jihatdan maktabgacha ta'lism tashkiloti va oilaning o'zaro hamkorligiga bog'liq. Bolalar ta'lism tashkilotining ota-onalar bilan ishlash tizimi ularning ushbu tashkilotini boshqarishda faol ishtirok etishini ta'minlaydi. Tarbiyalanuvchilarning ota-onalari huquqiy jihatdan bolalar bog'chasining jamoasi hisoblanmasa-da, lekin ular o'z farzandlari uchun uning muvaffaqiyatli faoliyat olib borishidan manfaatdor. Ular muayyan ma'noda ijtimoiy buyurtmachilar hisoblanishadi, shuning uchun ular maktabgacha ta'lism tashkilotining faoliyatiga ta'sir qilish va unda ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'lishlari kerak.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lif to'g'risida"gi Qonunida (51-modda) ota-onalar ta'lif faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotni boshqarishda ushbu tashkilot ustavida belgilangan shaklda ishtirok etish huquqiga ega ekanligi belgilangan. O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lif va tarbiya to'g'risida"gi Qonuning 38-moddasida davlat maktabgacha ta'lif tashkilotining kuzatuv kengashi tarkibini saylash va unga saylanish huquqiga ega ekanliklari qayd etilgan.

Bugungi kunda tarbiyalanuvchilarning ota-onalari maktabgacha ta'lif tashkilotlarida kuzatuv kengashlarini tashkil etish orqali maktabgacha ta'lif sifatini oshirish, bolalar bog'chasida bolalar xavfsizligi va yashash sharoitlarini yaxshilash bilan bog'liq masalalarni hal etishga faol ta'sir ko'rsatishning noyob imkoniyatiga ega. Aynan ota-onalarning kuzatuv kengashi faoliyatidagi ishtiroki ularga maktabgacha ta'lif tashkilotini kollegial boshqarish jarayoniga jalb qilish imkonini beradi.

Kuzatuv kengashi davlat va jamiyat boshqaruvining yangi organi bo'lib, maktabgacha ta'lif tashkiloti faoliyatini tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy bazaga tegishli o'zgartirishlar kiritilgandan so'ng ta'lif tashkilotida uning boshqaruvini tashkil etadi. Kuzatuv kengashining o'ziga xos xususiyati shundaki, u ota-onalar va homiylik kengashiga nisbatan kattaroq vakolatlarga ega va uning qarorlari maktabgacha ta'lif tashkiloti ma'muriyati a'zolari uchun majburiydir. Bu maktabgacha ta'lif tashkilotining nizomida belgilangan vakolatlarga ega bo'lgan o'zini o'zi boshqarishning kollegial organi bo'lib hisoblanadi.

Ta'lifini davlat va jamiyat tomonidan boshqarish - bu o'zaro ta'sir qiluvchi ikkita tarkibiy qism, ikkita tamoyil, ikkita turdag'i subyektlar, ya'ni davlat (maktabgacha ta'lif tashkiloti yoki ta'lif organi vakillari) va jamiyat (ota-onalar, bolalar va mahalliy faollar vakillari) mavjud bo'lgan boshqaruv shakli.

Kengashning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- hududiy bo'lim tomonidan tavsiya etilgan nomzodlar tarkibidan tashkilot direktorini saylash, shuningdek uni egallab turgan lavozimidan ozod etish haqida takliflar kiritish;

- tashkilot direktorining ushbu tashkilot faoliyatini takomillashtirish yuzasidan ko'rilayotgan chora-tadbirlar, moliya-xo'jalik holati, daromadlar va xarajatlar, byudjet mablag'laridan, byudjetdan tashqari, homiylik va boshqa mablag'lardan foydalanish to'g'risidagi hisobotlarini eshitish;
- tashkilotning yillik moliyaviy rejalarini, ko'rsatilayotgan pullik xizmatlar narxining miqdorlarini va tashkilot mulkidan foydalanganlik uchun ijara haqi miqdorini, shu jumladan auksiondagি boshlang'ich narxni tashkilot direktorining ishtirokida tanishib chiqish va takliflar berish;
- tashkilot direktorining va boshqa xodimlarining faoliyatiga taalluqli ijtimoiy so'rovlар o'tkazish;
- tashkilotda tarbiyalanuvchilar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish hamda ularni yaxshilash bo'yicha ota-onalar, jamoatchilik tashkilotlari va homiylar bilan hamkorlik qilishda amaliy yordam ko'rsatish;
- tashkilotni rivojlantirishga doir ustuvor yo'nalishlarni belgilash bo'yicha ta'lim tashkiloti direktorining dastur va rejaliри yuzasidan hududiy bo'limga takliflar kiritish;
- tashkilotning xodimlarini rag'batlantirish bo'yicha hududiy bo'limga takliflar berish.

Boshqaruvda ishtirok eta oladigan g'amxo'r ota-onalarni qanday jalb qilish kerakligi to'g'risidagi masala mavjud. Chunki, aksariyat ota-onalar ish bilan bandligi sababli bog'chadan uzoqlashadilar, ehtimol ular bog'cha hayotida ishtirok etishlari mumkin, ammo ular buni qanday qilishni bilishmaydi. Ota-onalar ko'pincha davlat boshqaruvi organlarining maqsadlari, vazifalari va vakolatlari haqida yetarli darajada ma'lumotga ega bo'lmaydilar.

Davlat va jamiyat boshqaruvini rivojlantirishning eng muhim muammosi - pedagoglar va ota-onalar o'rtasidagi ishonchga asoslangan munosabatlarini o'rnatish zaruratidir. Kollegial boshqaruv organi faoliyatidan muhim va kutilgan samara bu ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarining "hamkorligi, salohiyati va barcha resurslaridan foydalanish"ni tashkil etishdir.

Mavjud muammolarni bartaraf etish va ota-onalarni maktabgacha ta'lim

tashkilotini boshqarishda faol ishtirok etishga undash uchun quyidagi o'zaro hamkorlik tamoyillariga rioya qilish kerak:

- pedagoglar va ota-onalar o'rtasidagi do'stona muloqot uslubi;
- o'zaro yordam va qo'llab-quvvatlash muhitini yaratish;
- ota-onalar bilan ishlashga individual yondashuv;
- muloqotni murabbiylik emas, balki hamkorlik shaklida qurish.

Oilalar va maktabgacha ta'lif tashkilotlarini yaqinlashtirish jarayonining barcha ishtirokchilari uchun asosiy vazifasi turli xil shakllar va yoshdagi auditoriyalarda ota-onalarning keng ko'lamli ta'limi bo'lishi kerak. Jamiyat va davlatning birgalikdagi sa'y-harakatlari bilan kelajakdagi va amaldagi ota-onalar o'zlarining psixologik, pedagogik, huquqiy bilimlarini to'ldirish, tajriba, ma'lumot almashish, ta'lif tashkilotlari bilan o'zaro munosabatlarning yo'llari va usullari to'g'risida bilish imkoniyatiga ega bo'lishlari uchun sharoit yaratish kerak.

Ota-onalarni tarbiyalashga, bolalar bog'chasi hayoti to'g'risida bilimlarini oshirishga qaratilgan tadbirlarni o'tkazish kerak. Ota-onalar timsolidan hamkorlarni ko'rish muhimdir.

Boshqaruv organlari a'zolari uchun o'z atrofida maslahatlashuvlar o'tkazish, kuzatuv kengashi yig'ilishida nutq so'zlash uchun ma'lumot toplash, tashkiliy yordam ko'rsatish uchun faol ota-onalar guruhini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Ta'lif tarbiya jarayonini boshqarishda jamoatchilik ishtirokini rivojlantirishning eng muhim natijasi ota-onalarni maktabgacha ta'lif tashkiloti hayotiga jalb qilishdir. Ota-onalarni maktabgacha ta'lif tashkiloti hayotiga ishtirok etishga jalb qilish bu ota-onalarni uning faoliyatida faolroq ishtirok etishga undaydiga o'zaro hissiy aloqalaridir. Ota-onalarning ishtiroki qanchalik yuqori bo'lsa, ular maktabgacha ta'lif tashkilotini boshqarishda shunchalik faol ishtirok etadilar.

### ***Adabiyotlar:***

1. O'zbekiston Respublikasining 2019 yildagi «Maktabgacha ta'lif va tarbiya to'g'risida»gi O'RQ-595-son Qonuni
2. O'zbekiston Respublikasining 2020 yildagi «Ta'lif to'g'risida»gi O'RQ-

637-son Qonuni

3. Tasheva N. S. MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTINI BOSHQARISHDA OTA-ONALARNING ISHTIROKI //Results of National Scientific Research International Journal. – 2024. – T. 3. – №. 1. – C. 177-182.

4. Tasheva N. S. BOLANING IJTIMOIY RIVOJLANISHIDA OILA INSTITUTINING AHAMIYATI //Analysis of world scientific views International Scientific Journal. – 2023. – T. 1. – №. 8. – C. 110-117.

5. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lif tashkilotlari uchun Ilk qadam Davlat o'quv dasturi Toshkent 2022 yil

6. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lif vazirligining 239 sonli buyrug'i Maktabgacha ta'lif tashkilotining kuzatuv kengashi haqidagi namunaviy nizomini tasdiqlash to'g'risida. 2018 yil

7. A. Muxsieva. Oila pedagogikasi. Toshkent. 2016 yil.

8. Лунгу, Н.Е. Взаимодействие дошкольной образовательной организации и семьи: философия, педагогика, практика / Н.Е. Лунгу // Детский сад от А до Я. – 2019.

9. Salimovna T. N. The Role of the Family in the Upbringing of Preschool Children //JournalNX. – T. 7. – №. 12. – C. 323-326.

10. Ташева Н. С. ФОРМИРОВАНИЕ У ДОШКОЛЬНИКОВ ПОЗНАВАТЕЛЬНОГО ИНТЕРЕСА ЧЕРЕЗ ДВИГАТЕЛЬНУЮ АКТИВНОСТЬ //Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies. – 2024. – T. 3. – №. 2. – C. 296-300.

11. Salimovna T. N. SHAXSIY XAVFSIZLIK MADANIYATINI TARBIYALASH-MADANIYATNING MUHIM TARKIBIY QISMI VA SHAXSNING SHAKLLANISHIDAGI MUHIM SOHASIDIR //TADQIQOTLAR. UZ. – 2024. – T. 32. – №. 1. – C. 188-191.